

BUXORO XONLIGI VA ROSSIYA DAVLATI SAVDO ALOQALARIDA “MOSKVA” SAVDO KOMPANIYASINING TUTGAN O‘RNI

Achilov Kattabek Rahmankulovich

*O‘zbekiston milliy universiteti, Tarix fakulteti, tarix ta’lim yo‘nalishi, 2-kurs
magistranti*

Annotatsiya: *maqolada Buxoro xonligi hamda Rossiya davlati o‘rtasida olib borilgan savdo-iqtisodiy aloqlar jarayonida “Moskva” savdo kompaniyasining o‘rni hamda savdo kompaniyasi vakili Anotniy Jenkinson faoliyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *“Moskva” savdo kompaniyasi, Buxoro xonligi, Rossiya, Antoniy Jekinson, imtiyoz, boj, Ural, Volga, Astraxan, Abdullaxon II, diplomatiya.*

Temuriylar davlati o‘rnida o‘z hukmronligini o‘rnatgan shayboniylar sulolasi vakillari davrida iqtisodiy soha mamlakatda boshboshdoqlik avj olib, o‘zaro siyosiy kurashlar, davlatning kuchli markaziy hokimiyatga ega emasligi tufayli hukumat nazaridan chetda qoldi. Tashqi savdo esa tanazzulga yuz tutdi. Biroq, XVI asr ikkinchi yarmida shayboniy Abdullaxon II (1557-1598)ning markazlashgan kuchli davlat tuzishi, mamlakatning inqirozli hayotini tartibga solish, uning iqtisodiy holatini mustahkamlash imkonini berdi. Bu tashqi savdoni rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi. Shu bois, jahon savdo yo‘llaridan chetda qolgan O‘rta Osiyo xonliklari hukmdorlari o‘z tashabbuslari bilan jahon savdosida ishtirok etish yo‘llarini izlay boshlaganlar. 1557-1558 yillarda Urganch, Buxoro, Samarqand va Balx hukmdorlarining Rossiya davlatiga elchilar jo‘natishi ana shu maqsad yo‘lida qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi.

Yevropada asosiy e‘tibor Hindiston va Xitoyga, jumladan O‘rta Osiyoning tabiiy boyliklarini egallashga qaratilganligi bois, jahon savdosining umumiy faoliyati Shimol-Janub yo‘nalishiga o‘zgardi. Bu yo‘nalishdagi savdo dengiz va quruqlik orqali olib borilib, Rossiya va Yevropa davlatlarining Hindistonga intilishlari natijasida Buyuk Ipak yo‘lining Sharq-G‘arb yo‘nalishi o‘rnini bemaolol bosa olgan. O‘rta Osiyo hududi esa Shimol-Janub yo‘nalishida muhim ahamiyat kasb eta boshlagan.

O‘rta Osiyodan Volgabo‘yi, Boltiq dengizi qirg‘oqlarigacha olib boruvchi savdo yo‘lining Rossiya hududidan o‘tuvchi qismi IX-X asrlarda eng serqatnov yo‘llaridan biri bo‘lgan. Buni Boltiq dengizi va Volga bo‘yi hududidan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan O‘rta Osiyoga tegishli turli ashyoviy manbalar,



tanga pullar tasdiqlaydi.¹⁰ XVI asrga kelib, markazlashgan Rossiya davlatining tashkil topishi bilan uning hududiy-geografik imkoniyatlari kengaygan. Shu sababdan, janubiy o'lkalarga olib boradigan savdo yo'llarida o'zgarishlar yuz berib, ular faoliyati takomillashgan. Savdo yo'llari orqali tutashadigan chegara va yirik savdo shaharlarida bojxonalar faoliyat yuritgan. Rossiya hududida rus hukumati farmoni bilan tashkil etilgan bojxonalar karvon yo'llari bo'ylab joylashgan bo'lib, ular Astraxan, Orenburg, Orsk, Troitsk, Semipalatinsk, Petropavlovsk, shuningdek, Rossiyaning deyarli barcha shaharlarida mavjud edi. Rossiya davlati tomonidan Yevropalik savdogarlarga keng imtiyozlar berilishi oqibatida, davlatning tashqi tijorat ishlari ko'p hollarda xorijlik savdogarlar tomonidan amalga oshirilgan. "Moskva" savdo kompaniyasi faoliyati rivojlanishi natijasida bojxona xizmati tartiblarida o'zgarishlar sodir bo'lgan va hukumatlar darajasida muhokama etilishi natijasida Rossiyaning tranzit savdoga oid bojxona xizmati shakllangan.

"Moskva" kompaniyasiga sharq mamlakatlari bilan savdoda monopol huquq berilgan, kompaniya yorlig'iga ega bo'lmagan savdogarlarning Rossiya hududi orqali Sharq bilan savdo-sotiq qilishlari ma'n etilgan. Ta'qiqni buzgan savdogarlar mollari musodara qilingan, bu jarayonda rus hukumati amaldorlari bilan bir qatorda kompaniya vakillari ham faol ishtirok etganlar.

1558-yilda Buxoroga kelgan ingliz savdogari Antoni Jenkinson «Moskva» savdo kompaniyasi uchun yozgan hisobotlarida, Eron va O'rta Osiyo hududlarida Moskva davlatining yordamisiz Angliya o'z savdo imkoniyatlarini rivojlantira olmasligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Shu sababdan inglizlar shimoli-sharqiy yo'nalishda faol suzishlarni oshirish bilan birga, Rus davlati bilan bog'lovchi eski savdo yo'llari o'rniga yangi, daromadli yo'llardan foydalanishga o'tdi. Bu yo'llar Moskvadan Boltiq dengiziga olib boruvchi yo'l Oq dengizga olib boruvchi yangi yo'lga, Levant savdo yo'li esa Kaspiy-Volga yo'lga almashtirildi.

Rus davlati bilan savdo aloqalari o'rnatilganidan so'ng «Moskva» savdo kompaniyasi Rus davlatidan ko'proq imtiyozlar olishga intildilar. O'zaro aloqalarning dastlabki yillarida Ivan IV Grozniy saroyida bo'lgan Antoni Jenkinson orqali Angliya hukumati ingliz savdosi uchun katta imtiyozlar olishga va Rus davlati orqali Eron va O'rta Osiyo bilan savdo olib borish imkoniyatlarini qo'lga kiritdi. Masalan, 1567-yil 22-sentyabrda rus hukumati tomonidan Jenkinsonga taqdim etilgan yorliqqa ko'ra, «Moskva» savdo kompaniyasiga Buyuk Novgorod, Pskov, Narva, Yaroslavl, Kostroma, Nijniy Novgorod, Qozon

¹⁰ Qarang: Вилинбахов В.Б. Волжско-Балтийский путь // Советская археология. 1963. – №3. – С. 126 – 133.



va Astraxan shaharlarida omborxonalar ochish va erkin savdo qilish, Shemaxa, Buxoro, Samarqand shaharlari bilan bojsiz savdo qilish imkoniyatlari yaratildi.

Antoni Jenkinson 1557-yil 3-mayida Londondan 4 ta kemadan: “Primroz” (Endryu Jedd, Uillyam Chester, Antoni Xinman, Eduard Kestelayn), “Ioanna yevangelista” (Endryu Jedd, Uillyam Chester), “Anna” (Jon Dimok) va “Troitsa” (R T) iborat flot bilan sayohatga chiqqan edi.

Antoni Jenkinson 1546-yil 2-oktyaridan Angliyadan tashqaridagi o‘z sayohatini boshlagan. Dastlab Flandriyaga keyin butun Gollandiyaga, undan Germaniyaga sayohat qilgan. Alp tog‘lari orqali Italiyaga borgan. Italiyadan Pemont orqali Fransiyaga borgan. Ispaniya va Portugaliya qirolliklari, O‘rta yer dengizining asosiy orollari – Rodos, Malta, Sitsiliya, Kipr, Kandiya va boshqa orollarni kezib chiqqan. Gretsiyaning turli xududlari – Moree, Axayya va Korinfda bo‘lgan. Turkiya, Suriya va Kichik Osiyoning turli mamlakatlarida bo‘lgan. Livan orqali Damashqqa, Samariya, Galiley, Falastin, Ierusalimgacha bo‘lgan davlatlarda bo‘lgan.

1562-yilda Kaspiy dengizi orqali Armanistonning Darband (bu shahar Aleksandr Makedonskiy tomonidan qurilgan) shahriga kelgan. Bu yerdan Midiya, Parfiya va Girkaniya orqali Eronga, “buyuk so‘fiy” saroyiga kelgan. (Deyarli barcha inglizlar Eron podshosini “Buyuk So‘fiy” deb ataydilar.)¹¹ So‘fiy – Islom dinining shialik tariqati bir yo‘nalishi hisoblanadi. 1499-yilda So‘fiylarning boshlig‘i g‘arbiy Eron ustidan hukmronlik o‘rnatib, o‘zini shoh deb e‘lon qildi. Ismoilshohning vorisi Taxmasp davrida (1524-76) Antoni Jenkinson Eronga kelgan edi. Antoni Jenkinson Eron podshosi saroyida 8 oy bo‘lib, turli mamlakatlar orqali orqaga qaytgan. 1566- va 1571-yillarda ikki marta yana Rossiyaga sayohat qilgan.

Antoni Jenkinson Angliya va Rossiya o‘rtasida savdo shartnomasi tuzishga uringan. Uning avlodlari XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Angliyaning yirik davlat arboblari bo‘lgan.


Antoni Jenkinson o‘z sayohati davomida “hech bir uyga kirmadim, daryo bo‘ylarida va ochiq joylarda yashadim. Bu davlatlarga sayohat qilishni hohlasa, o‘ziga kerakli narsalarni olishi kerak. Bu davlatlarda ot kam, faqat uni shaharlardan olish mumkin.” deb ta‘kidlaydi.¹²

Savdogar sifatida Antoni Jenkinson 1558-1560-yillarda O‘rta Osiyoga kelib, bu yerdagi mamlakatlar va Xitoy va Hindistonga boradigan savdo yo‘llari haqida

¹¹ Пигулевская Н. В. и др. История Ирана с древнейших времен до конца XVIII века. – М., 1958. – С. 254-256.

¹² Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – М., 1958. – С. 76–77.





qimmatli ma'lumotlar to'playdi. Antoni Jenkinson va uning hamrohlari (Richard va Robert Jonsonlar hamda tarjimon Aziz ismli tatar) sayohati qiyinchilik va xavf-xatar bilan 21 oy (1558-yil apreldan to 1559-yil 2-sentabrigacha) davom etdi. Uning asosiy maqsadi O'rta Osiyo orqali Xitoy va Hindistonga savdo yo'llarini ochish edi. Lekin u o'sha davrdagi O'rta Osiyo xonliklarida avj olib ketgan o'zaro mahalliy hokimlar o'rtasidagi o'zaro urushlar tufayli o'z maqsadiga erisha olmadi.¹³

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb savdo tizimining ajralmas qismi bo'lib hisoblanish bilan birga Markaziy Osiyo xalqlarining o'zaro aloqalari va hududdagi integratsion jarayonlarda muhim o'rin tutgan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida bu yo'lning transkontinental ahamiyati tushib ketgan bo'lsada, uning ayrim tarmoqlari Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy aloqalarining asosiy tomirlari vazifasini o'tayvergan. XVI asrda Yevropaliklar ularning turli shaxobchalari orqali Markaziy Osiyo xalqlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yo'lga qo'yishga harakat qilgan. Yevropa mamlakatlari, jumladan Rossiyaning Buxoro xonligi bilan olib borgan savdo-iqtisodiy aloqalarida "Moskva savdo kompaniyasi" muhim rol o'ynagan.

¹³ Готье Ю. В Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. – М: "ОГИЗ" 1937. – С. 124.

